

HUQUQ OLAMIDA O'CHMAS IZ QOLDIRGAN AYOL

Amirova Laziza Abdurashid qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Bu maqolada akademik Xadicha Sulaymonovaning ilm-fanga qo'shgan rivoji, huquqiy mamlakat barpo etishdagi sa'y-harakatlari, mazmunli va ibratli hayot yo'li hamda ilmiy-madaniy merosini tahliliy yoritib berishga harakat qilingan. Maqolada X.S.Sulaymonovaning birinchi o'zbek huquqshunos ayoli va sudya bo'lishi, huquq fanini yuksaltirishi, O'zbekiston SSRning Adliya vaziri hamda Bosh sudyasi lavozimlarida faoliyatgacha kelishi va undan keyingi jarayonlar, murabbiy akademik va jamoat arbobi sifatida e'tirof etilishi, xalqaro ilmiy anjumanlarda qatnashishi, shuningdek vafot etishiga qadar bo'lgan voqealar ketma-ket ko'rsatib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR: O'zbekiston SSR Adliya vaziri, O'zSSR Oliy sud raisasi, kodifikatsiyalash, sud tizimi, sistemalashtirish, davlat huquqiy tizimi, sovet sudlari.

KIRISH

1913-yilda Andijonda tug'ilgan[1]. 1935-yilda Jahon Obidova nomidagi Toshkent Sovet qurilishi va huquq institutining yuridik fakultetini tamomlagan[2]. 1935—1938-yillarda xalq sudyasi, O'zbekiston SSR Oliy sudining a'zosi bo'lgan[2]. 1938-yil sentyabrda Xadicha Moskva yuridik institutining sovet jinoyat huquqi kafedrasi aspiranturasiga o'qishga kirdi va 1945-yil 20-iyulda "O'zbekiston SSRning harbiy interventsiya davridagi jinoyat qonunchiligi va fuqarolar urushi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va huquqshunoslik bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lgan birinchi o'zbek ayoli bo'ldi[2]. Sulaymonova 1945-yil sentyabrdan Toshkent yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasi dotsenti, mudiri sifatida ishlay boshladi. 1948—1950-yillarda Xadicha Sulaymonova SSSR Fanlar akademiyasining Yuridik institutida doktorant bo'lgan. 1950-yil dekabr oyida „O'zbekistonda sovet jinoyat huquqining paydo bo'lishi va rivojlanishi“[2] mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va 1952-yilda professor[1]




unvonini oldi. 1954-yil sentyabrda Toshkent yuridik instituti rektori etib tayinlandi, shu yilning dekabr oyida Xadicha Sulaymonova O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoni bilan taqdirlandi. 1955-yilda Toshkent yuridik instituti O'rta Osiyo davlat universitetining (SAGU) yuridik fakulteti [3] etib qayta tashkil etilganidan so'ng u jinoyat huquqi kafedrasи mudiri bo'ldi[2]. 1956-yilda Xadicha Sulaymonova Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi[1]. 1956—1958-yillarda akademik Sulaymonova O'zbekiston SSR adliya vaziri, 1959—1964-yillarda O'zbekiston SSR Vazirlar Soveti huzuridagi Yuridik komissiya raisi, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi deputati; 1964-yildan — O'zbekiston SSR Oliy sudi raisi sifatida faoliyat olib bordi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

X.S. Sulaymonovaning, avvalo, ilmiy-madaniy merosi hamda ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasini yoritib berish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz. Talabalik davrlarida ilm-fanga qiziqishi tufayli, Xadicha Sulaymonova 1938-yilda Moskva yuridik instituti sovet jinoyat huquqi kafedrasiga aspirant bo'lib kiradi. shu yildan boshlab, u o'z ilmiy faoliyatini boshlaydi. 1945-yilning 20-iyulida Moskvada birinchi "Harbiy intervensiya va fuqarolar urushi davrida O'zbekiston SSRning jinoyat qonunlari" mavzuidagi dissertatsiyasini yoqlagach, Toshkentga huquqshunoslik fanlari nomzodi bo'lib qaytib keladi. Xadicha Sulaymonova huquqshunoslik sohasida ilmiy daraja olishga sazovor bo'lgan birinchi ayol edi. 1948-yilda esa SSSR Fanlar Akademiyasining huquq institutiga doktoranturaga yuborilib, qisqa vaqt oralig'ida uning ikkita maqolasi chop ettiriladi: "O'zbekistonda sovet jinoyat qonunining vujudga kelishi" hamda "O'zbekiston SSRda sovet sudlarining tashkil topish tarixi". 1950-yilda esa X.S. Sulaymonova doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. O'zbekiston sovet jinoyat huquqlari shuningdek, sovet sudi tarixini yaratgan birinchi huquqshunos bo'ldi [2, 45]. 1913-yilda Andijonda tug'ilgan[1]. 1935-yilda Jahon Obidova nomidagi Toshkent Sovet qurilishi va huquq institutining yuridik fakultetini tamomlagan[2]. 1935—1938-yillarda xalq sudyasi, O'zbekiston SSR Oliy sudining a'zosi bo'lgan[2]. **Xalqaro kongresslar va konferensiyalarda ishtirok etishi.** Hadicha Sulaymonova Xorijiy mamlakatlар bilan do'stlik va madaniy aloqalar jamiyatlari ittifoqining huquq bo'limi vitse-prezidenti bo'lib,





Sovet tinchlik qo'mitasi va Sovet ayollarini qo'mitasi ishida faol ishtirok etgan III Xalqaro sotsiologlar kongressi (Amsterdam, 1956), BMT II Kongressi (London, 1960), Xalqaro demokratik huquqshunoslar assotsiatsiyasi (IAUD) VII kongressi (Sofiya, 1960), Osiyo va Afrika ayollarining I konferensiyasi (Qohira, 1961), Osiyo va Afrika huquqshunoslarning xalqaro konferensiyasi (Tokio, 1961) ishtirokchisi bo'lganlar. Akademik Xadicha Sulaymonova "Zamonaviy jamiyatdagi ayol va uni ozod qilish yo'llari" mavzusida fikr almashishda ishtirok etdilar (Praga, 1962) va 1964-yil yanvar oyida Seylon ayollar tashkilotining taklifiga binoan Lanka Mahila Samiti (LMS) Sovet xotin-qizlar qo'mitasi delegatsiyasi rahbari sifatida mamlakat bo'ylab sayohat qilganlar.

XULOSA

Xadicha Sulaymonova hozirgi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yaratilishiga, mintaqada adolatli huquqiy muhit vujudga kelishiga, huquqshunoslik fanining rivojlanishiga va jamiyat farovonligini ta'minlashga g'oyat katta hissa qo'shib ketdi. Hukumat akademik Xadicha Sulaymonovaning davlat, ilmiy-pedagogik va ijtimoiy faoliyatini yuqori baholadi. U "O'zbekiston SSRning xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi (1954), ikki marta "Fahr nishoni" ordeni, "Buyuk Vatan urushi davridagi mehnatkash jasorati uchun" medali, O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi.U 1965-yil 26-noyabrda og'ir va uzoq davom etgan xastalikdan so'ng vafot etdi[6][2], Chig'atoy qabristoniga dafn qilindi.Akademik Sulaymonova nomi sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot institutiga va Toshkent shahrining markaziy ko'chalaridan biriga berilgan[2][1].Toshkent yuridik institutida Xadicha Sulaymonova muzeyi bor.Xalqimiz xotirasida esa birinchi huquqshunos olma, davlat arbobi va buyuk murabbiy sifatida muxrlanib qoladilar.

REFERENCES:

- 1.M.X. Hakimov Akademik Xadicha. –T.: “O‘ZBEKISTON”, 1972. –83 b.
- 2.M. Hakimov, G. Ahmedov va A. Saidov Xadicha Sulaymonova –huquqshunos olima, davlat arbobi. –T.: “O‘ZBEKISTON”, 1993. –150 b.
- 3.Sobraniye sochineniy, t. 1—3, T., 1967— 71.
- 4.Hakimov M. X., Akademik Xadicha, T., 1974. Malik Hakimov. Akademik Xadicha, Adolat, Toshkent, 1972.
- 5.Toshkent. Ensiklopediya. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2009. –675 b
6. A. Ishanov O‘zbekistondagi yuridik ilm-fan.—M.: Sovet ensiklopediyasi, 1977.—725 b.